Jumladan O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi O'RQ-394-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagи “Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5368-son Farmoni, shuningdek 2018-yil 14-avgustdagи “Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3907 son Qarorlarida, jismoniy tarbiya va sport mutahassislarining ushbu vazifalarni ilmiy asosda yechish masuliyatlari belgilab berilgan. Biroq o'sib kelayotgan yosh avlodning salomatlik holati yomonlashishi kuzatilmoxda. Buning asosiy sabablaridan biri umumta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya jarayonining past samaradorligi, jumladan, jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarga individual yondashuvning yo'qligi hisoblanadi. Yuqorida bildirilgan holatlar o'quvchilarni jismoniy tarbiyalashning takomillashtirilgan metodikasini ishlab chiqish zarurligidan dalolat beradi.

Har bir sport mакtabida gandbol bo'yicha maxsus sinflarning ochilishi o'quv mashg'ulotlari mazmunini yanada ham oshiradi. Bunda mashg'ulotlar mazmunini kuniga ikki maxal o'tkaziladi.

Bugungi kunda gandbolning kun sayin rivojlanishi jismonan eng baquvvat va iste'dodli o'yinchilarni tanlab olish talab qiladi. Shuning uchun ham gandbolchilarni tayyorlashdagi eng asosiy masala umidli yoshlarni tanlab olishdir.

Bolalar va o'smirlar sport maktablari hamda sport yo'nalishidagi mакtab internatlar nizomida ko'rsatib o'tilganidek, iste'dodli va umidli sportchilarni tanlab olish butun o'qish jarayonida olib boriladi.

Har yili o'qishga qabul qilish vaqtida o'quvchilarni tanlab olish yoki bir yosh guruhidan ikkinchisiga o'tkazish masalasi ularni har tomonlama tekshirib ko'rish yo'li bilan hal etiladi.

Keyingiyillarda gandbolga doirko'pgina ilmiy maqolalar, uslubiy ko'rsatmalar va qo'llanmalarda yosh gandbolchilarni tanlab olish masalalari keng yoritilmoqda. Hususan, K.A.Shperlingning ilmiy asoslangan fikrlari ayniqsa, foydalidir. Muallifning fikricha, hozirgi davrda gandbolchi tayyorgarligini boshqaruvchi yagona jarayon deb qaramoq kerak.

Bolalarning yoshlariiga hamda ular oldiga qo'yiladigan mashg'ulotlarning maqsadi va vazifalariga ko'ra boshqaruvchi jarayonni 3-4 davrga bo'lish mumkin.

Birinchi davr (7-9yosh) dastlabki tayyorgarlik davri deb qaraladi. Bu davrdagi asosiy vazifa bolalarda gandbolga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va sport maxorati uchun umumiyl zamin yaratishdir. Bu vazifalarni amalga oshirishda maxsus mashg'ulotdan tashqari darsdan keyingi seksiya va to'garak ishlari vaqtidan foydalanish.

Ikkinci davr (10-12 yosh) ham biologik ham pedagogik jihatidan tanlab ola boshlashning eng muxim davri hisoblanadi.

Uchinchi davr (13-16 yosh) ihtisoslikni chuqur o'zlshtirish davri.

To'rtinchi davr (16 yosh va undan katta) sportda takomillashish davridir. Bunda gandbolchi o'smirlar katta yoshlilar jamoalariga tanlab olinadi. Bu davr guruh va jamolarni tashkil etish hamda mashg'ulotlarni olib borishda o'ziga hos hususiyatlarga ega.

Olimlarni fikricha yosh gandbolchilar tayyorgarlikni kompleks tekshirish dasturi o'ziga hos



qator hususiyatlarga ega bo‘ladi.

Birinchidan, uning mazmunini o‘yinchining barcha harakat va ruxiy sifatlarini imkon boricha to‘la aks ettirishi kerak.

Ikkinchidan, tekshirish natijalari faqatgina yuklanmalarni rejalashtirish uchun emas, balki tanlab olish, kelajagi bor iste’dodli yoshlarni aniqlash uchun ham hisobga olinadi.

Keyinroq o‘ziga xos malaka va maxoratga ega bo‘lgan bolalar aniqlanadi. Bu davrda ularning gandbol bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari talablariga qobiliyati borligini aniqlovchi chuqur tekshirishlar o‘tkaziladi. Murabbiylar pedagogik kuzatishlar va maxsus nazorat mashqlari tizimidan foydalanib, bolalarning gandbol o‘yini uchun kerakli bo‘lgan ko‘nikma va mahoratlari haqida to‘liq ma’lumot oladilar.

Gandbol mashg‘ulotlarida bolalarning (qobiliyatiga baxo berish) harakatlari uchun va ruxiy xusiyatlarini aniqlaydigan nazorat mashqlari tanlanadi.

Sinovlardan olingan natijalar maktabga yangi qabul qilingan o‘quvchining kelajakda qanday o‘qishi haqida murabbiyga ma’lumot beradi. Tanlab olingan murabbiy tanlash sinovlarini bir necha bosqichda o‘tkazadi.

Gandbol bo‘limi mashg‘ulotlariga sog‘ligi juda yaxshi bo‘lgan 9-10 yoshli bolalar qabul qilinadi. Avval murabbiy bolalar bilan tanishadi. Qobiliyatli bolalarni tanlab olgach, ular bilan nazorat sinovlari asosida gandbol bo‘yicha dastlabki mashg‘ulotlarni o‘tkazadi. Keyinchalik bolalar gandbolning yosh sportchilarga qo‘yadigan talablari asosida tanlanadi.

Bolada gandbol o‘yiniga layoqat mavjudligini tasdiqllovchi o‘ziga hos ko‘rsatkichlarga baho berish birinchi navbatda test o‘tkazish va kuzatish natijalariga bog‘liq bo‘ladi. Yosh gandbolchining o‘ziga xos qobiliyatini rivojlantirish usul va vositalarini to‘g‘ri tanlash katta ahamiyatga ega.

Gandbol bo‘yicha o‘quv guruhlar tashkil etish va bolalarning sportdagi natijalarini oldindan ayтиб berishda testlar o‘tkazish usuli va o‘yinga tayyorgarlikni tahlil qilish asos qilib olinadi. Bunda pedagogik mahorat va shug‘ullanuvchilar sog‘lig‘i to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham e’tiborga olish lozim.

Bundan tashqari, bolaning ruxiy imkoniyatlariga to‘g‘ri baho berish ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu yosh sportchining ruxiy sifatlarini ravojlanish darajasini aniqlashga, gandbolchining o‘yin usullarini yaxshi o‘rganib olishga imkon beradi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘RQ-394-son Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-son Farmoni
3. Gandbol. F.Abduraxmonov, S.Pavlov T. 2005
4. <https://fayllar.org/navoiy-davlat-pedagogika-instituti-jismoniy-madaniyat-fakulteti.html?page=12>



## AMIR TEMUR – SHARQ RENESSANSI ASOSCHISI

**Rasulova Kamola Xazratqulovna**

Zarafshon kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi

Telefon: +998(93)6612326

kamolara.sulova@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temurning jahon tamadduniga qo'shgan hissasi, qudratli markazlashgan davlatga asos solishi hamda jahon hamjamiyatining Amir Temur shaxsi haqidagi fikrlari va asarlari xususida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, xalq, buyuk, uyg'onish, obod, ilm, ma'rifat, kuchli, markazlashgan, bosqinchilar, san'at, qudratli, vatan, davlat.

Insoniyat bosib o'tgan yo'lning tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatning rivojiga, xalqlar taqdirida buyuk daholarning xizmatlari beqiyosdir. Insoniyat taraqqiyotini batamom yangi yo'nalishga solib yuboraoladigan daholar tarixda nihoyatda kam uchraydi. Shunday daholardan biri sohibqiron Amir Temurdir. Dunyoning uch azim qit'asi Osiyo, Yevropa, Afrikada siyosat yurgizgan Amir Temur o'z faoliyatini bilan bir necha millatlarning taqdiriga obod tur mush, osoyishtalik, ilmu ma'rifat, madaniyat, obodonchiliklar olib kirganligi bilan qadrlidir. Amir Temurning zimmasiga juda katta vazifalani bajarish mas'uliyati bilan birga, muqaddas Vatanni ajnabiy bosqinchilardan ozod qilish mas'uliyati ham tushgan edi. Amir Temur nafaqat buning uddasidan chiqdi, balkim mo'g'ul bosqinchilaridan asorat bo'lib qolgan xarobalar o'rnida obod va qudratli bir davlat barpo qildi.

Turon zaminida buyuk uyg'onish — Renessans davrini boshlab berdi. Shu o'rinda XIV—XV asrlarda Turonda Uyg'onish — Renessansning boshlanishiga qanday omillar sababchi bo'ldi, degan savol tug'ilishi tabiiydir. Buning sababi shundaki, Temuriylar davrida insonning har tomonlama rivojlanishiga va har bir kishiga o'z qobiliyatini amalda ko'rsatishga shart-sharoitlar yaratilganidadir. Temuriylar davrida mamlakatlarda shaharsozlik, me'morchilik, tasviriysan'at, naqqoshlik, zardo'zlik, metallga badiiy ishlov berish, xattotlik, ilm-fan, adabiyot, musiqa kabi sohalarning o'ta rivojlanganligining guvohi bo'lamiz.

Temuriylar Turonda yaratgan Renessans XV asrdayoq Xuroson va Hindiston, Yevropa mamlakatlarida ham o'z shu'lasini socha boshladi. Doimo ilm-fan, san'at va madaniyatga chanqoq Yevropa xalqlari temuriylar Renessansini bundan 600 yillar ilgari qabul qilib, tahlil qila boshlaganligining guvohi bo'lamiz. 1403 yili Samarcandga tashrif buyurgan ispan elchisi Klavixo va uning sheriklari bu yerda bo'lganlarda Movarounnahrdagi yuksak san'at va madaniyatni, muhtasham va naqshinkor binolarni hayrat bilan tomosha qiladilar. Ayniqsa, Amir Temurning turk sultoni Yildirim Boyazid ustidan 1402 yili qilgan g'alabasi Yevropa mamlakatlarida kuchli aks-sado berdi. Ovro'pa qirollari birin-ketin Samarcandga o'z elchilarini va maktublarini yuborib turdilar. Yevropaning yetuk olimlari, yozuvchi, rassomlari ham Amir Temurning shaxsiyatiga, hukmdorlik faoliyatiga katta qiziqish bilan qaray boshladilar. Yevropalik tarixchilar Perrodina, De Sanks'o, DelaKrua, De Marga'f, Nev, J. Kalyu, E. Gomlios, L. Lengle, H. Vamberi kabilar temuriylar davriga oid noyob qo'lyozmalarni o'rganib, o'z tillariga tarjima qilganlar, sharhaganlar. Bu asarlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ovro'palik tarixchilar vai jodkorlar Amir Temur shaxsiyatidan, kuchli markazlashgan davlat qura olganligidan hayratlanganlar, uning yaratgan tartib-qoidalari va qonunlari o'taadolatli progressiv ekanligini ta'kidlaganlar. Shuningdek, Amir Temur daholigiga qiziqish yevropalik ijodkorlar, rassomlar, shoirlar va haykaltaroshlar, dramaturglar orasida ham kuchayib ketdi. Parija Amir Temurning oltindan yaratilgan haykali va uning ostiga bitilgan "Yevropaxaloskor" degan sharaflı yozuvlar fikrimiz dalilidir.

Italiyalik yozuvchi Bertrano Mignanelli Amir Temur haqida kitob yozdi. Shuningdek, italiyalik yozuvchi Franchesko Brachcholi va fransuz mutafakkiri Jak Bodenlar ham o'zasarlarida Amir Temur siymosiga va qobiliyatiga katta o'rin bergenlar. G'arb ijodkorlari orasida, ayniqsa, mashhur ingliz shoiri, qirolicha Elizavetaning dramaturgi Kristofor Marloning alohida o'rni bor. Uning sohibqironga bag'ishlangan tragediyasi bir necha asrlardan beri sahnadan tushmay kelmoqda. K.Marlo Amir Temur hayoti talqin etilgan ushbu asarini 1590 yili nashr ettirgan. U o'z asarida Amir Temurni zo'r jismoniy kuchga ega bo'lgan, yengilmas irodali, jangchilarning yo'lboshchisi sifatida tasvirlaydi. Mashhur ingliz tarixchisi Edvar Tibbon va nemis tarixchisi Fridrix Shlosserlar ham o'z asarlarida bir necha bor Amir Temur siymosiga, uning arboblik va



sarkardalik faoliyatiga yuksak baho bergenlar. Ayniqsa, fransuz tarixchisi L. Langlening Amir Temur shaxsiyatiga bergen bahosi diqqatga sazovordir. U o‘z asarida: «Amir Temur olimlarga xayrixoh munosabatda bo‘lar va bilim bilan birga halolligini ko’rgan olimlarga ishonar edi. U tarixchi va faylasuflar, ilm-fan yoki ma’muriy sohada bilimdon bo’lgan kishilar bilan suhbatlashish uchun ko’pincha taxtdan ham tushar edi. Amir Temur o‘z qo’liostii dagi kishilarni bo’ysundirish qobiliyati bilan birga, ularni baxtiyor qilish iste’dodini ham qo’llar edi», — deb yozgandi.

Amir Temur va temuriylar davrida yaratilgan yuksak madaniyatni xalqaro UNESCO tashkiloti ham ikki marta e’tirof etganligi — Temuriylar Renessansini xalqaro miqyosda tan olganligini yaqqol isbotlab turibdi. 1969 yili Samarqandda UNESCO Temuriylar davri sah’atini o’rganishga bag’ishlangan xalqaro ilmiy simpoziumni o’tkazgan bo’lsa, 1996 yilda UNESCO Amir Temurning 660 yilligi bilan Parijda «Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning ravnaqi» mavzusida xalqaro simpoziumni o’tkazdi. Ushbu marosim ochilishida UNESCO ning sobiq Bosh direktori Federiko Mayorning: «Amir Temurning Samarqanddagi saroyida bo’lgan Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixoning esdaliklarini o‘qir ekanman, Markaziy Osiyo mazkur qismining XIV asr madaniyatini — me’morchilik boyliklarini, she’riyat nafosatini, texnik va ilmiy topqirligini, ushbu madaniyatga afsonaviy jahongir Amir Temurning ta’siri va daholigini kashf etdim», — degan so‘zlari diqqatga sazovordir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Grekov B.D, Yakubovich A.Y Oltin O’rda va uning qulashi. Toshkent-1956 y.
2. Temur tuzuklari. G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996 y
3. ”Muloqot jurnali” Toshkent, 1996yil 3-soni.



## ОИЛА МАДАНИЯТИ ВА УНИНГ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕЗОНЛАРИ

**Нодирова Хурсаной Ибрагимовна**

Тошкент давлат стоматология  
институти академик лицейи ХҚҚ раиси

**Аннотация:** ушбу мақолада оилавий хаёт болаларни инсоний муносабатларда уз шахсини камол топтириш имкониятини ёритиб беради.

**Калит сўзлар:** оила, никоҳ, тинчлик-хотиржамлик, соғлом маънавий мухит, меҳр-мухабbat, фарзанд, халоллик.

Оила муқаддас, оила миллат шарафи юқори мартабага кўтарадиган маданият ўчоғидир. Миллат кўпайишининг бирдан – бир йўли эркак ва аёлнинг никоҳ ва оила муносабатида бўлишидир. Оила қуриш арафасида турган йигит-қизларга тўғри йўналиш ва оила маънавияти тўғрисида керакли маслаҳатларни ўз вақтида бериш лозим. Ҳаёт давомийлигини асоси бўлган аёлни наслимиз давомчиси бўлмиш фарзандларимиз саломатлигини асраршу бу миллатни, халқни асраршидир. Оиланинг мустаҳкамлиги учун аёл ҳам, эркак ҳам бирдек маъсулдир.

Президент Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “Биз учун муқаддас бўлган оила асосларини янада мустаҳкамлаш, хонадонларда тинчлик-хотиржамлик, аҳиллик ва ўзаро ҳурмат мухитини яратиш, маънавий-маърифий ишларни аниқ мазмун билан тўлдиришдан иборат бўлмоғи зарур. Аёллар ўртасида жиноятчилик, оилаларда ажралишлар кўпайгани, ёшларнинг турли диний-экстремистик оқимлар ва террористик ташкилотлар таъсирига тушиши каби халқимизга хос бўлмаган аччиқ ва нохуш масалалар билан боғлиқ”. Шу боисдан ҳам мамлакатимизда оилалар мустаҳкамлигини таъминлаш, уни моддий ва маънавий жиҳатдан кўллаб-куvvatлаш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири этиб белгиланган.

Ҳаммамизга жуда яхши маълумки, оиладаги мухит, энг аввало, ҳар бир оиладаги соғлом маънавий мухитга, оила раҳбарларининг дунёқараши, ақл-заковатига боғлиқ. Чинакам маърифат ва маънавият эгаси бўлиш эса ҳар бир оила аъзосинининг, оила бошлиқларининг, айникса, хонадон бекалари – мухтарама аёлларимизнинг оғизларидан чиқадиган сўзга, ширин муомалага жуда кўп жиҳатдан боғлиқдир.

Тарбия масаласига ёндашадиган булсак, кам болали оилаларга нисбатан куп болали оилаларда болалар тарбияси анча енгил кучади. Чунки куп болали оилалардаги болалар отоналарининг хатти-харакатларини, aka ва опаларининг улар уртасидаги гамхурликларини, айникса, бир-бирларига булган дустона муносабатларини, уйдаги ҳар хил вазифаларни сидқидилдан бажаришларини, кичикларнинг катталарга одоб билан муносабатда булишларини табиий холда курадилар, кузатадилар. Агар оилада катта ва кичик болалар булса, улар уртасида турли куринишлардаги меҳр-мухабbat ва дустлик карор топади. Оилавий хаёт болаларни инсоний муносабатларда уз шахсини камол топтириш имкониятини беради. Кам болали оилаларга нисбатан куп болали оилалarda шундай хаётий вазифалар мавжуд буладики, масалан, катта ақагача ва кичик уқагача булган меҳр-мухабbat, яъни бир-биридан фарқланувчи хиссиётни, aka-ука ва опа-сингиллар уртасида бир-бирлари билан нарсаларнинг teng айирбошлаш ва бошкалар пайдо булади. Тарбиянинг самарадорлиги оиладаги болалар меҳнати, уларнинг уй хужалигидаги фаол иштироки, шунингдек, оилавий турмуш шароитлари билан белгиланади. Болаларни катталарга ҳурмат, дустлик, инсонийлик, халоллик каби одоб коидаларига ургатиб борилади. Шахс маънавиятини юксалтириш энг аввало ҳар бир шахснинг юксак камолотга эришиши, унинг ўзлигини англаши, “мен”лигини қарор топтириш бир сўз билан айтганда чинакам инсонлик мақоми билан яшашига имкон беради. Маънавий қашшоқ шахс ана шундай бойликлардан маҳрум бўлади. Бундан кўриниб турибдики, юксак маънавиятга эришиш ҳар бир шахснинг ҳаётий зарурати хисобланади. Шахс маънавиятини ривожлантиришнинг омиллари ва воситалари кўп. Шулардан бири фарзанднинг ота-онага ва ота-онанинг фарзандга бўлган муносабати масаласидир. Ўзбек халқининг энг қадимий даврларидан бошлаб ҳозирга қадар давом этиб келаётган, ўз аҳамиятини ҳеч қачон йўқотмайдиган ажойиб қадриятларидан бири отонани фарзандлар томонидан юксак даражада эъзозлаш, иззатикромини, ҳурматини жойига кўйишдан иборатdir. Фарзанд учун дунёда ота-онадан кўра меҳрибон, азиз ва мўътабар зот



йўқ. Ота-она фарзандларнинг суюнчиғи, битмас-туганмас бойлигидир.

Биринчи Президенти И.А.Каримов “Юксак маънавият – енгилмас куч” номли асарида: “Оилавий тарбия масаласида хатога йўл қўймаслик учун аввало ҳар қайси хонадондаги маънавий иқлимини ўзаро хурмат, ахлоқ-одоб, инсоний муносабатлар асосига қуриш айни муддао бўулур эди”. Оилада муомала маданиятининг ўрни шунчаки оилавий масала бўлиб колмай, давлат аҳамиятига эга бўлган ижтимоий-сиёсий аҳамиятга эга бўлган долзарб масаладир. Бу масалага етарлича эътибор қаратиш ва керакли чора-тадбирларни қўллаш оила, демакки, жамият мустаҳкамлигини таъминлашнинг энг ишончли гаровидир.

Оилада ёшлар ғоявий-сиёсий маданиятини шакллантиришда оиланинг мукаддаслиги, ота-она ва фарзанд бурчи, оилада соғлом турмуш тарзини яратиш, одоб-ахлоқ меъёрлари, тежамкорлик, шунингдек, оила аъзоларининг узаро муомала-муносабатлари, уй тутиш ва рўзгор юритиш, оилада меҳнат тарбияси, авлодлар занжирини давом эттириш кабиларга катта аҳамият берилиши максадга мувофиқдир. Профессор Ойниса Мусурмонованинг «Оила маънавияти - миллий ғуур» номли ўқув қўлланмасида «Оиланинг энг мухим вазифаларидан бири -тарбия хисобланади. Оила-тарбия маскани....»-дейилган. Дархақиқат, оилада дунёга келган фарзанд ота-онадан нафақат ирсий хусусиятларни олади, балки улардаги хатти-харакат, одоб-ахлоқ коидаларини хам эгаллаб боради. Шу жихатдан хам ёш авлод ғоявий-сиёсий маданиятини тарбиялашда халқнинг бой миллий маданий-тариҳий анъаналари, урф-одатлари хамда умумбашарий қадриятларга асосланган ижтимоий жараённи таркиб топтиришда оила мухим аҳамият касб этади. Шахсни тарбиялаш ва вояга етказиш, камол топтириш устуворлиги оиладан бошланади. Шу сабабли ҳаммамиз учун илфор билимларн ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маънавият эгаси бўлиш узлуксиз ҳаётй эҳтиёжга айланиши керак.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Турғунбоев Ф., Зоҳидов Ф., Мўминов С. Маънавий-маърифий тарғибот: шакл ва мазмун. – Фарғона, 2011.
3. [3. https://staff.tiiame.uz/](https://staff.tiiame.uz/)



## ЁШЛАРНИНГ МАЊНАВИЙ ДУНЁСИ ВА ХУЌУҚИЙ МАДАНИЯТИ

Нодирова Хурсаной Ибрагимовна

Тошкент давлат стоматология  
институти академик лицейи ХКК раиси

**Аннотация:** ушбу мақолада ёшларнинг фаолиятини, вазифаларини ёритиб беради.

**Калит сўзлар:** мањнавий етуклиқ, тинчлик-хотиржамлик ёшлар мањнавияти, меҳрмұхабbat, халоллик, ватанпарварлик.

Янги Ўзбекистоннинг барча хаётий жабхаларида ижобий ўзгаришлар, иқтисодий ривожланиш, юксак мањнавий етуклиқ, таълим соҳасидаги туб ислоҳатлар юз бераётган айни пайтда, энг юқори умуминсоний қадриятларга таянувчи мағфурани асос қилиб олган давлатгина чинакамига кудратли улуғ давлат даражасига кўтарилади хамда ўз фуқароларининг хаётий ва инсоний баркамолликларини кафолатлай олади. Таълим даргоҳларида ёшларнинг ўзлигини англаш даражаси, касбий шаклланиш жараёнлари, бевосита инсоний баркамолликка эришишнинг энг самарали соҳалари хисобланади.

Ўзбек оиласининг ўзига хос бетакрор томонлари борки, бу фазилатлар кўп асрлар давомида шаклланган ва ривожланган. Биз оиласининг кўп қиррали ва мураккаб вазифаларидан бири бўлган тарбиявий имкониятларга эътиборни қаратмоқчимиз ва ўшалар асосида ёшлар мањнавиятини ривожлантириш ва бу борада тарбиявий ҳамкорликни оиласдан бошлаш долзарб масала хисобланади. Бу муаммоларни хал этишга инсоннинг ижодий меҳнат фаолияти, фан-техника соҳасини ривожлантириши билан бирга айни вақтда мањнавий-марифий онгни шакллантириш, ёшлар мањнавий-марифий онгни юксалтириш муаммосини айнан оиласдан бошлаш, унинг кўп қиррали фаолиятининг мухим бўлган инсон хусусиятларини ўрганиш, муносабатларини, онгли шахсий сифатларини аниқлаш алоҳида ахамиятга эгадир. Инсонлар борки, ўз-ўзини, меҳнат ва ижодий фаолиятини онгли бошқара олади, мувозанатини сақлайди, хиссиётини яширишни уддалайди, ўзини тарбиялаш ва ўзгартиришга тайёр туради.

Мањнавий олами бўлмаган ёш йигит-ўсмири жамиятда эрки ва қадр-қимматини йўқотади, бундай киши инқизозга, сўнгра руҳий емирилиш ҳолатига учрайди. Бу ҳолат унинг меҳнат фаолиятига, айни пайтда, ижтимоий муносабатларига ҳам кўчиб ўтади. Натижада ижтимоий муносабатлар риёкорликка, иккюзламачиликка, расмий қарорларнинг суиистеъмол бўлишига олиб келади. Ёшлар мавжуд ахлоқий қадриятлардан кўра, жамиятнинг реал муносабатларига интилиш орқали ўз «мен»ини ҳимоя этишга интилади. Бу, ўз ўрнида, ёшларнинг ахлоқий-психологик қиёфасига, жамиятда мањнавий жараёнлар ривожига салбий таъсир этмай қолмайди. Натижада вужудга келган бўшлиқда бузғунчи кучлар ўз мақсадларини ОАВ ва янги ахборот коммуникация тармоклари орқали ёшлар онгига сингдиришга ошиқади.

Сўнгги йилларда миллий хавфсизликни таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар изчил мањнавий тизимга айлананаётганини таъкидлаш лозим. Мазкур тадбирлар барқарор ижтимоий муносабатлар ривожини таъминловчи барометр сифатида ёшлар фаолиятини янада жонлантириш вазифаларини ўз ичига қамраб олгани билан самарали натижаларни бермоқда.

Бугунги кунда 2016 йил 14 сентябрдаги «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига мувофиқ, йигит-қизларга белгиланган тартибда мукофотлар, стипендиялар, таълим грантлари тақдим этиш, иқтидорли ва истеъододли ёшларни аниқлаш мақсадида танловлар, олимпиадалар, кўргазмалар ташкил этиш, уларни хорижий мамлакатларда ўқитиш, қайта тайёрлаш ва амалиётни ўташ дастурларидан танлов асосида фойдаланишини таъминлашнинг уч босқичли тизими амал қилмоқда. Мањнавий тизимнинг замонавий эҳтиёжларини ифода этувчи шакл ва усууллар сифатида «Ҳар бир тадбиркор—ёшларга мададкор» Ёшлар кичик саноат зоналари, “Yosh tadbirkorlar” коворкинг-марказлари, “Yoshlar mehnat guzari” комплекслари, «Лойиҳалар фабрикаси», «Ёшлар мурожаати» электрон платформаси фаолияти, «Оиласий тадбиркорликни ривожлантириш» дастури, «Бир миллион дастурчи» лойиҳаси, Президентимизнинг беш муҳим ташабbusи, “Yoshlar — kelajagimiz” жамғармаси, «Бир тадбиркор + бир ёш» «Ёшлар дафтари» каби рағбатлантирувчи технологиялар самарали натижаларини бериб келмоқда.



Дархақиқат, ёшлар масаласи - энг мухим масала. Айниқса, хозирги глобаллашув даврида ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллактиришнинг ахамияти катта. Чунки Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президента Ислом Каримов “Юксак маънавият - ёнгилмас куч” асарида қайд этиб ўтганидек, глобаллашув икки жиҳдтдан намоён булмоқда: биринчидан, у дунё халкларининг ўзаро яқинлашуви учун кенг имкониятлар яратмоқда; иккинчидан, миллий анъаналар ва қаддриятларни инкор кқилиш тусини олмоқда. Бундай шароитда эртанги кун эгалари бўлган ёш авлоднинг юксак даражада иммунитетли бўлиб вояга етиши мухимдир. Негаки мафкуравий иммунитет инсонда оқу қорани тез фарқлаш ва энг тўғри йулни танлаш куникмасини хосил қиласди. Мафкуравий иммунитетда эзгу ишлар ва шахслардан ибрат олиш мухим ўрин тутади. Шонли тарихимизда ибрат олгудек ходисалар кўп. Мисол учун, юонон тарихчиси Полиэннинг “Харбий ҳдилалар” китобида келтирилган Широқ воқеасини олайлик. Широқ - оддий чўпон. Лекин у юртимизга душман бостириб келганида юксак даражадаги ватанпарварликни кўрсатади. Унинг ватанпарварлигига қуидаги характеристири жихатлар бор: - у оддий чупон бўлса хам, Ватанини чексиз даражада севади; - юртига душман бостириб келганида, унинг химояси учун биринчилардан бўлиб отланади; - душманни ёлгиз ўзи енгади; - душман билан курашишда энг маҳбул усулни танлайди; - инсон Ватан учун, керак бўлса, жонидан хам кечишини амалда исботлайди. Полиен тарихий қаҳрамонимиз воқеасини тасвирлаш билан уни ўз халқига ибрат қилиб кўрсатган. Шу маънода ёшларимиз учун ватанпарварликда Широқ, идеал намунаидир.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Турғунбоев Ф., Зохидов Ф., Мўминов С. Маънавий-маърифий тарғибот: шакл ва мазмун. – Фарғона, 2011.
- 3.<https://cyberleninka.ru/article/n/talaba-yoshlarning-manaviy-tarbiyaviy-ongini-shakllantirishda-pedagogik-amkorlikning-rni-va-a-amiyati>
4. Ш.Тураев Маънавий-маърифий ишлар в а уни ташкил қдлиш методикаси.



## FIZIKA FANI O'QITISHDA TA'LIMNING INNOVATSION USULLARI

**Raxmatov Ne'matjon Isoqjonovich**

Farg'ona “Temurbeklar maktabi”  
harbiy akademik litseyi fizika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fizika fani o'qitish jarayonlarida o'qitishning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullarini o'qituvchiga beradigan afzalliklari yoritilgan.

**Annotation.** In this article, the advantages of using modern technologies in the process of teaching physics to the teacher are highlighted.

**Аннотация.** В данной статье выделены преимущества использования современных технологий в процессе обучения учителю физики.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya, fizika, o'qitish, innovatsiya, simulyatsiya

Fizika ta'limalida qo'llaniladigan texnologiya bizni orzu qilingan maqsadlarga yaqinlashtira oladimi? Shubhasiz, texnologiya fizika ta'limini yanada dolzarb, real hayot bilan ko'proq bog'lash va haqiqiyroq qilishga yordam berishi mumkinligi aniq ko'rsatildi. Yigirma birinchi asrning tubdan yangi axborot muhiti o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish, yagona ta'lim axborotini ishlab chiqish kabi qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Kompyuterlashtirish zamonaviy ta'limi modernizatsiya qilishning asosiy bosqichlaridan biridir. Bu juda asosli, chunki yangi axborot texnologiyalari an'anaviy usullarga nisbatan bir qancha muhim afzalliklarni taqdim etadi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari bo'yicha o'quvchilar o'quv jarayonida yaratilgan eng yangi o'quv materiallarini o'qish imkoniyatiga ega. O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish, albatta, ko'plab afzalliklarga ega.

Zamonaviy texnologiyalar fizikani o'rganishni takomillashtirish va qulaylashtirish imkonini beradi. Taqdimotlar, animatsiyalar va video materiallardan foydalanish yordamida o'qituvchi yangi mavzuni aniqroq tushuntira oladi. Taqdimot slaydlari vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi. Sinfda axborot texnologiyalaridan foydalanish tufayli o'qituvchi ilmiy filmlar, jadvallar, grafiklar va diagrammalar, jismoniy jarayonlar va hodisalarning animatsiyalari, texnik qurilmalar va eksperimental qurilmalarning ishi, fotosuratlar va boshqalarni o'quvchiga ko'rsata oladi va u tomonidan fizikani o'rganishga qiziqish rivojlanadi. Darsni g'ayrioddiy tarzda boshlash imkonini beruvchi taqdimotlar, masalan, eng so'nggi texnika yangiliklari bilan tanishish kabi usullar o'quvchilarni darsga bo'lgan munosabatini keskin yaxshilashga sabab bo'ladi.

Zamonaviy multimedia texnologiyalari juda katta imkoniyatlarga ega. O'quv amaliyotida o'quv axborot resurslarining deyarli barcha turlari va shakllaridan sezilarli darajada foydalanish vizual va audio axborot sifatini yaxshilaydi, u yorqinroq, rang-barang, dinamikroq bo'ladi. Bundan tashqari, elektron ta'lim resurslaridan foydalanish va kadrlar tayyorlashda zamonaviy telekommunikatsiyalarning afzalliklari vizual va audio yaratish usulini tubdan o'zgartiradi. An'anaviy vizual o'rganish vositalari ma'lum bir ob'ektni anglatadi. Endi dinamik talqin nafaqat real ob'ektlarning, balki ilmiy qonunlar, nazariyalar, tushunchalar va boshqalarning muhim xususiyatlari aylanadi.

Tajribalar va namoyishlarsiz fizikani tushunish imkonsiz. Fizika eksperimental fandir. Ammo barcha tajribalarni o'quv laboratoriyalarda o'tkazish mumkin emas. Masalan, bu xavfli moddalar bilan tajriba o'tkazish yoki zarur asboblar bo'limgan taqdirda. Bunday holda, yangi ma'lumotlar texnologiyalar yordamga keladi. Ular mavzuni o'rganishni bunday tajribalar bilan to'ldiradi. Kompyuter modeli yordami bilan biz nafaqat har qanday jarayonni ko'rib chiga olamiz, balki jismoniy shartlar va parametrlarni ham o'zgartirishimiz mumkin. Kompyuterni modelini qo'llab-quvvatlash ba'zi jismoniy qurilmalar, hodisalar va hodisalarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi Jismoniy ma'noni tushunish uchun zarur bo'lgan ko'plab o'zgaruvchilar va hodisalar mavjud. Oddiy sharoitlarda bunday hodisalarning paydo bo'lish mexanizmini tasavvur qilib bo'lmaydi. Masalan, ular elektronlar harakati, izotermik jarayonlar va boshqa jarayonlarni tushuntirish bu vazifani hal qilish bilan yechimga olib borishi mumkin. Jismoniy hodisalar va tajribaning jonlantirilgan namoyishlari yordamida. Kompyuter modellaridan foydalanishning bir qator afzalliklarini aniqlashimiz mumkin. Dars mavzusiga oid videoning mavjudligi tufayli siz tez cho'zilgan vaqtini boshqarishingi mumkin. Masalan, molekulalarning diffuziyasini o'rganish, isinish yoki kristallanish jismalari va boshqa ko'plab hodisalarda bu qo'l keladi.



Fizika fani o‘qitish jarayonlarida o‘qitishning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari o‘qituvchiga quyidagi afzalliklarni beradi

- o‘quvchilarning darsga va bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;
- o‘quv jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini kengaytirish;
- o‘quvchilarning kompyuter savodxonligi darajasini oshiradi;
- o‘quvchilarni zamonaviy texnologiyalariga qiziqishini oshiradi va shu asosida fan ularda fanni o‘rganish hohishini kuchaytiradi;
- o‘quvchilarning bilish qobiliyatini rivojlantiradi;
- o‘quvchilarning tasavvuri va tafakkur darajasini oshiradi;
- dars sifatini yaxshilaydi.

Zamonaviy o‘quvchi faqat hikoya va ma’ruzalardan ilhomlanmaydi. Ushbu ma’lumotni eslab qolishda texnologiyalar materialni almashtirishdan ko‘ra uni to‘ldirishi kerak. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish har qanday faoliyatni yanada ko‘rinadigan qilish, turli xil ma’lumotlar bilan ishlash kabi qulayliklarni berishi mumkin. Biroq, ba’zi o‘qituvchilar bu imkoniyatlardan ortiqcha foydalanishadi, buni fakt bilan oqlaydilar. Ba’zan shunday tuyuladiki, axborot texnologiyalari o‘quv jarayoniga faqat ijobjiy narsalarni olib keladi. Albatta, ko‘p hollarda bu to‘g‘ri, lekin har bir tanganing ikki tomoni bor. Har bir o‘qituvchi bilishi va har ikki tomonni hisobga olishi kerak. Ko‘rinib turibdiki, zamonaviy jihozlar, dasturiy ta’minot, elektron ta’lim resurslaridan foydalanish o‘qituvchiga yordam beradi, darslarni osonroq va qiziqarli qiladi. Ulardan foydalanishni o‘ylangan o‘qituvchi fikri oqilona bo‘lishi kerak. Lekin shuni unutmaslik kerakki, axborot texnologiyalari har doim ham muammoning yechimi bo‘la olmaydi, balki dono ustoz qo‘lida yaxshi o‘rganish vositasi bo‘lib hizmat qiladi.

### **Adabiyotlar.**

1. Albion, P., Jamieson-Proctor, R., & Finger, G. (2010). Auditing the TPACK competence and confidence of Australian teachers: The teaching with ICT audit survey (TWICTAS). Paper presented at the 21st International Conference of the Society for Information Technology & Teacher Education (SITE 2010), San Diego, California, United States.
2. Borich, G. D. (2007). Effective teaching methods: Research-based practice: Prentice Hall.
3. Bryan, J. (2006). Technology for physics instruction. Contemporary Issues in Technology and Teacher Education, 6(2), 230-245.
4. Buabeng, I. (2018). Physics classroom interactions: Teaching strategies and practices. Journal of Research in Science, Mathematics and Technology Education, 1(3), 311-328.
5. Buabeng, I., & Ntow, D. F. (2010). A Comparison study of students’ reasons/views for choosing/not choosing physics between undergraduate female non-physics and female physics students at University of Cape Coast. International Journal of Research in Education, 2(2), 44-53.



## FIZIKA FANI O‘QITISH TEXNOLOGIYASINI INNOVATSION USULLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

**Tojimatov Qobiljon Maxamadtoir o‘g‘li**

Farg‘ona “Temurbeklar maktabi”  
harbiy akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fizika ta’limiga o‘qitish texnologiyasi va boshqa o‘quv innovatsiyalarini joriy etish hamda ularni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning muhim sabablari ko‘rsatilgan.

**Annotation.** This article presents important reasons for introducing teaching technology and other educational innovations in physics education and integrating them into the learning process.

**Аннотация.** В этой статье представлены важные причины для внедрения технологий обучения и других образовательных инноваций в физическом образовании и их интеграции в учебный процесс.

**Kalit so‘zlar:** Texnologiya, fizika, o‘qitish, innovatsiya, simulyatsiya

Yangi texnologiyadan foydalanish yigirma birinchi asrda bizning hayot tarzimizga salmoqli ta’sir ko‘rsatdi. Texnologiya aloqa, moliya, savdo, ta’lim va hatto sport o‘yinlarida ham keng qo‘llanilmoqda. Ta’limda texnologiya o‘qitish va o‘qitish usullarini o‘zgartirish imkoniyatiga ega. Tez o‘zgarishlar o‘qituvchilardan o‘quvchilarda malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, mustahkam ta’lim tizimini yaratishga olib keladigan o‘qitish va o‘qitishda innovatsiyalarni kiritish uchun texnologiyadan foydalanishga tegishli javobni talab qiladi. Shuning uchun o‘qituvchilarning darsda texnologiyadan qanday foydalanishiga qiziqish ortib bormoqda.

Har doim o‘zgarib borayotgan yigirma birinchi asrda ta’lim oldidagi muammolar o‘qitish va o‘rganishga samaradorlik va qiymat qo‘sadigan texnologik vositalarni qanday topish va ulardan foydalanishdir. Texnologiya kuchli vosita sifatida darsda chuqur va doimiy ta’sirga ega bo‘lib, o‘qituvchilarning o‘qitish amaliyotini va o‘quvchilarning o‘quv jarayonlarini osonlashtirish orqali darslarni o‘qitish usullarini o‘zgartirishi mumkin. Samarali ta’lim va o‘qitish uchun o‘qituvchilar ham, o‘quvchilar ham muammolarni hal qilish uchun ma’lumotlarga kirish, tartibga solish va baholash va amaliy g‘oyalarni real dunyo sharoitida yangilash uchun yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlarini talab qiladi. So‘ngi yillarda zamonaviy kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq holda dars mashg‘ulotlarni tashkil etishning innovatsion shakllari tobora ko‘payib bormoqda.

Fan ta’limida texnologiyadan foydalanish targ‘ib qilinadi, chunki texnologiya faol o‘rganish imkoniyatlarini beradi, o‘quvchilarga yuqori kognitiv darajalarda ishlashga imkon beradi, konstruktiv ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi. Texnologiya fanni o‘qitishning tadqiqot va amaliy jihatlarini yaxshilaydi; mакtab ishlarini ishlab chiqarishni tezlashtiradi va oshiradi; motivatsiya va faollikni oshiradi; tadqiqot va tajribalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ma’lumotlariga ko‘ra, texnologiyani fanni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish uchun quyidagi standartlar ishlab chiqilgan.

- Texnologiya tegishli pedagogika bilan munosib ravishda fanga tadbiq etilishi kerak.
- Texnologiya o‘quv fanining mazmuni kontekstida joriy etilishi kerak.
- Fanni o‘qitish texnologiyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalanishi kerak.
- Texnologiya ilmiy qarashlarni yanada qulayroq qilishi kerak.

Ma’lumotlarda ta’kidlanishicha, texnologiya bilan har qanday yaxshi o‘qitishning markazida uchta asosiy komponent mavjud: tarkib, pedagogika va texnologiya, shuningdek, ular o‘rtasidagi va o‘rtasidagi munosabatlar. Texnologik, pedagogik va mazmunli integratsiyaga hozir e’tibor qaratilayotganbo‘lsada, o‘qituvchilar ushbu komponentlarni o‘zta’limlarida, ayniqsa dunyomizning bu qismida integratsiyalashganligini ko‘rsatadigan dalillar kam. Ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar texnik vositalarni sotib olishga e’tibor qaratmoqdalar, bu uskunalar mакtablarda qanday qo‘llanilishiga emas, balki mакtablarda o‘rnatishga ko‘proq e’tibor berishadi. Ular ta’lim muassasalariga faqat texnologiyani olib kirish uning muvaffaqiyatini ta’minlash uchun yetarli emasligini ta’kidlaydilar. Muhimi, o‘qituvchilar o‘z darslarida texnologiyadan qay darajada foydalanadilar Texnologiyani pedagogika va mazmunga integratsiya qilish uchun o‘qituvchilar o‘zlari o‘rgatadigan fan mazmuni va texnologiyani qo‘llash orqali ushbu mavzuni qanday



o‘zgartirish mumkinligi haqida bilimga ega bo‘lishlari kerak va aksincha, aniq fanlarni o‘qitish muayyan texnologiyadan foydalanish natijasini qanday o‘zgartirishi mumkinligini bilishlari kerak.

O‘qituvchilar sinda texnologiyani samarali integratsiya qilish uchun o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin bo‘lgan yondashuvlardan biri bu texnologiya, mazmun va pedagogikani uyg‘unlashtirish uchun kasbiy rivojlanishning turli bosqichlarida ishlashdir Ko‘pgina tadqiqotchilar fizikani o‘qitishda texnologiya muhim ahamiyatga ega ekanligini qabul qildilar.

O‘quvchilarning fizikaga qiziqishi yo‘qligi va yomon ishlashning asosiy omillari o‘qituvchilarga bog‘liq. Bir qator xalqaro olimlar ta’kidlashicha, fizika fani o‘qituvchilari standart muammolarni hal qilish va eslab qolish orqali o‘rganishga asoslangan an‘anaviy o‘qitish yondashuvlariga amal qildilar. Bu omillardan asosiysi o‘qituvchi omili edi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘rta maktab darajasida fanga qiziqish pasaygan, chunki mavzu ularga yomon taqdim etilgan. Tadqiqotda ishtirok etgan fizika fani o‘qituvchilari ham o‘quvchilarning qiziqish darajasi pastligining sabablaridan biri yomon o‘qish ekanligini tan olishdi. Fizika o‘qituvchilari qanday pedagogik yondashuvlardan foydalanadilar va ular texnologiyani o‘qitishga kiritadimi yoki yo‘qmi, bu qanday texnologiya ekanligi aniq emas. Aynan shu asosiy muammo va bu moammo quyidagi savollarni keltirib chiqaradi.

O‘quvchilar va o‘qituvchilarning fizika darsida texnologiyadan foydalanish haqidagi tasavvurlari qanday?

- Fizika o‘qitishda qanday texnologiya mavjud?
- Fizika o‘qituvchilari qanday pedagogik yondashuvlardan foydalanadilar?

Fizika ta’limiga texnologiya va boshqa o‘quv innovatsiyalarini joriy etishning eng muhim ikkita sababi

- 1) o‘quvchilarning fizikadan bilim olish qobiliyatini oshirish
- 2) o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan munosabatini yanada yaxshilashdir

Fizikani o‘qitish uchun eng keng tarqalgan texnologiyalar kitoblar, bo‘r, oq doska, jadvallar, laboratoriya jihozlari va ma’lum darajada kompyuter texnikasi va dasturiy ta’minot ekanligiga o‘quvchilar va o‘qituvchilar ham rozi. Laboratoriya uskunalari kabi fanni o‘qitish uchun mavjud bo‘lgan ushbu umumiylar analog va an‘anaviy xususiyatga ega bo‘lib, ular fanni o‘qitish uchun emas, balki fan bilan shug‘ullanish uchun mos keladi. Biroq, o‘qituvchilar va o‘quvchilar tomonidan e’lon qilinganidek, kompyuterlar bilan ishlaydigan simulyatsiyalar va videolar fizikani o‘qitishda eng kam qo‘llaniladigan texnologiyalardan biri edi. Shuning uchun ba’zi o‘qituvchilar sinflarda fizikani o‘rgatish uchun video va simulyatsiya emas, balki taqdimot dasturidan foydalanishlari mumkin. Bu shuni anglatadiki, o‘quvchilar fizikani o‘qitish uchun simulyatsiyalar, modellar, animatsiyalar va videolar kabi raqamlili texnologiyalar talab qiladi.

Shunday ekan aytish mumkinki, fizikani o‘qitishning ustun usullari bu savollar va javoblar va namoyish usullari. Ushbu usullar maktablarda keng tarqalgan texnologiyalar bo‘lgan kitoblar va laboratoriya uskunalari kabi an‘anaviy texnologiyalarga mos kelishi mumkin. Makteblar jihozlangan laboratoriyalarga ega bo‘lishi mumkin, ammo har bir o‘quvchining ishi uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin, shuning uchun o‘qituvchilar ushbu ilmiy asboblar bilan birgalikda savol-javob va namoyish usullaridan foydalanishlari kerak. Fizika darsidagi tushunchalar va qonunlarni namoyish etish kabi o‘qitishga yo‘naltirilgan ushbu yondashuvlar fizikani ko‘plab o‘quvchilar uchun qiziqarli qiladi. Ammo hozirda fizika darslarida o‘qituvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvlar va bo‘r va nutq ko‘rsatmalari ustunlik qiladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar, agar muammolarni hal qilish uchun modellashtirish, animatsiyalar va simulyatsiyalarini o‘z ichiga olgan o‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanilsa, fizikani o‘rganish yanada qiziqarli bo‘lishini ta’kidladilar.

Ko‘rganingizdek, o‘qituvchilar fizikani o‘qitishda foydalanadigan umumiylar texnologiyalar o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini uyg‘otmaydigan jadvallar kabi an‘anaviy turlardir. Fizika o‘qituvchilari kamdan-kam hollarda fizikani o‘qitishda zamонавиу рақамли texnologiyalar shaklini kiritadilar. Shuning uchun o‘qituvchilar o‘quvchilarga berilgan tushunchalar yoki ko‘nikmalarini yaxshi tushunishlari uchun darslarni o‘tkazishda o‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanishlari tavsiya etiladi. Fizika o‘qituvchilari ushbu tadqiqotda ko‘rsatilganidek, darslarni o‘tkazishda ma’ruza usulidan foydalanishdan qochishlari kerak. Bundan tashqari, fizika o‘qituvchilariga o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otadigan video va simulyatsiyalar kabi zamонавиу ва рақамли texnologiyalarni birlashtirish tavsiya etiladi.



**Adabiyotlar.**

1. Borich, G. D. (2007). Effective teaching methods: Research-based practice: Prentice Hall.
2. Bryan, J. (2006). Technology for physics instruction. Contemporary Issues in Technology and Teacher Education, 6(2), 230-245.
3. Buabeng, I. (2018). Physics classroom interactions: Teaching strategies and practices. Journal of Research in Science, Mathematics and Technology Education, 1(3), 311-328.
4. Buabeng, I., & Ntow, D. F. (2010). A Comparison study of students' reasons/views for choosing/not choosing physics between undergraduate female non-physics and female physics students at University of Cape Coast. International Journal of Research in Education, 2(2), 44-53.
5. Jamieson-Proctor, R., & Finger, G. (2010). Auditing the TPACK competence and confidence of Australian teachers: The teaching with ICT audit survey (TWICTAS). Paper presented at the 21st International Conference of the Society for Information Technology & Teacher Education (SITE 2010), San Diego, California, United States.



**MEXANIK TEBRANISHLARGA DOIR MASALALARNI GARMONIK  
TEBRANISHLAR TENGLAMASI ORQALI ISHLASH**

**Qoraboyev Husniddin Sohibjonovich**

Farg‘ona “Temurbeklar maktabi”  
harbiy akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Tebranma protseslarning fizik tabiatini va murakkablik darajasi jihatidan turli tuman bo‘lishiga qaramay ularning hammasi bazi umumiylar qonunyatlar asosida ro‘y beradi va garmonik tebranishlar deb ataluvchi eng sodda davriy tebranishlar to‘plamiga keltirish mumkin shuning uchun garmonik tebranishlar qonunyatlarini o‘rganish katta amaliy va nazariy axamyatga ega

**Kalit so‘zlar:** garmonik tebranishlar, siljish, davr, chastota, siklik chastota, amplituda

Garmonik tebranishning asosiy va xarakteristikalari bilan moddiy nuqtaning aylana bo‘ylab teks xarakati misolida qarab chiqish qulay Faraz qilaylik M moddiy nuqta A radyusli aylana bo‘lib soat strelkasining yo‘nalaishiga teskari yo‘nalishda o‘zgarmas  $\omega$  burchakli tezlik bilan xarakatlanayotgan bo‘lsin u vaqtida bu nuqtaning vertikal X o‘qi bo‘ylab proeksiyasidan iborat bo‘lgan siljish kattaligi  $+A$  dan  $-A$  gacha chegarada o‘zgaradi u vaqtida t vaqtdagi  $\chi$  siljishi quydagiga teng bo‘ladi

$$x = A \sin \varphi$$

1-masala.

Nuqtaning tebranish tenglamasi  $x = 0,2 \sin \left( \frac{\pi}{4} + \frac{\pi}{4} \right) (m)$ , ko‘rinishga ega.

Amplitudasi A davri va boshlang’ich fazasi  $\varphi_0$  topilsin  $t_1 = \frac{T}{4}$  paytdan siljishi  $x_1$  va tebranishning fazasi  $\varphi_1$  topilsin

$$\text{Berilgan } x = 0,2 \sin \left( \frac{\pi}{4} t + \frac{\pi}{4} \right) (m) \quad t_1 = \frac{t}{4}$$

$$\text{Toppish kerak } a = ? \quad t = ? \quad v = ? \quad x_1 = ? \quad \varphi_1 = ?$$

Yechilishi: masalani yechish uchun berilgan tenglamani garmonik tebranishning umumiyligini ko‘rinishidagi tenglamasi bilan solishtramiz

$$\begin{aligned} x &= 0,2 \sin \left( \frac{\pi}{4} + \frac{\pi}{4} \right) \\ x &= A \sin \left( \frac{2\pi}{T} t + \varphi_0 \right) \end{aligned}$$

Bu ikki tenglamani taqqoslanishidan quydagilar kelib chiqadi tebranishning amplitudasi  $A=6,2$  m; davri  $\frac{2\pi}{T} t = \frac{\pi}{4}$  bunday  $T=8$  c ekan u xolda chastota  $v = \frac{1}{t} = \frac{1}{8c} = 0,125c = 0,125$  gts boshlang’ich fazasi  $\varphi_0 = \frac{\pi}{4}$  tebranish fazasi  $\varphi_1 = \frac{2\pi}{T} t_1 + \frac{\pi}{4} = \frac{2\pi}{T} \frac{T}{4} + \frac{\pi}{4} = \frac{\pi}{2} + \frac{\pi}{4} = \frac{3\pi}{4}$  va nixoyat nuqtaning siljishi  $x_1 = 0,2m \sin \frac{3}{4}\pi m = 0,2 * 0,707 m = 0,1414 m$ .

$$\text{Javobi } A = 0,2m, T = 8c, v = 0,125gts \quad \varphi_0 = \frac{\pi}{4}, \chi_1 = 0,1414 m, \varphi_1 = \frac{3\pi}{4}$$

2-masala

Moddiy nuqtaning tebranishi  $x=0,25 \sin \left( \pi t + \frac{\pi}{2} \right)$  m qonuni bo‘yicha bajariladi tebranish amplitudasi A davri T siklik chastotasi  $\omega$  boshlang’ich fazasi  $\varphi_0$  maksimal tezligi  $v_{max}$  va maksimal tezlanishi  $a_{max}$  topilsin

$$\text{Berilgan } x = 0,25 \sin \left( \pi t + \frac{\pi}{2} \right) m,$$

$$\text{Toppish kerak } a = ? \quad t = ? \quad \omega = ? \quad \varphi_0 = ? \quad v_{max} = ? \quad a_{max} = ?$$

Yechilishi topilishi kerak bo‘lgan kattaliklarni aniqlash uchun tebranishning tenglamasini garmonik tebranish ning umumiyligini ko‘rinishidagi tenglamasi bilan solishtramiz

$$x = 0,25 \sin \left( \pi t + \frac{\pi}{2} \right), m.$$



$$x = A \sin \left( \frac{2\pi}{T} t + \varphi_0 \right)$$

Bu ikki tenglama taqqoslanishidan quyidagi kelib chiqadi: tebranishning amplitudasi  $A = 0,25 \text{ m}$ ; davri  $\frac{2\pi}{T} t = \pi t$ , bundan  $T = 2c$ ; tsiklik chastotasi

$$\omega = \frac{2\pi}{T} = \frac{2\pi}{2c} = \pi \text{ rad/c} = 3,14 \text{ rad/c}; \text{ boshlang'ich fazasi } \varphi_0 = \frac{\pi}{2}.$$

Tebranishning tezligi  $\vartheta$  va tezlanishi  $a$  mos ravishda siljish funksiyasining birinchi va ikkinchbi tartibli hosilasidan iborat bo`lgani uchun:

$$\vartheta = \frac{dx}{dt} = 0,25 \cos \left( \pi t + \frac{\pi}{2} \right) \quad \text{bo`lib,}$$

$$\vartheta_{\max} = 0,25\pi \text{ m/c} = 0,25 \cdot 3,14 \text{ m/c} = 0,785 \text{ m/c}.$$

$$\text{Shunday qilib } \vartheta_{\max} = 0,785 \text{ m/c. } a = \frac{d^2x}{dt^2} = \frac{dv}{dt} = -0,25\pi^2 \sin \left( \pi t + \frac{\pi}{2} \right) \text{ bo`lib,}$$

$$\text{Shunday qilib, } a_{\max} = -2,46 \text{ m/c}^2.$$

$$\text{Javobi. } A = 0,25 \text{ m}, T = 2c, \omega = \pi \text{ rad/c} = 3,14 \text{ rad/c.}$$

$$\varphi_0 = \frac{\pi}{2}, \vartheta_{\max} 0,785 \text{ m/c}, a_{\max} = -0,46 \text{ m/c}^2.$$

### Adabiyotlar

1. Сборник задач по физике. 10-11 классы/Авт.-сост. Е.Г.Московкина, В.А.Волков.-М.:BAKO,2017.
2. Tursunmetov K.A. va boshqalar. Umumiy fizika kursidan praktikum. Mexanika. Universitet. T.: 1998. – 140 bet.
3. M.O'lmasova va boshqalar. Fizika Mexanika, Molekulyar fizika va Issiqligi. Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 1970 yil.
4. Nazirov E.N. va boshqalar. Mexanika va molekulyar fizikadan praktikum. T.: O‘zbekiston.

# **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 10-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2023

**Контакт редакций научных журналов:** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000